

XOTIN-QIZLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINALOGIK TAHLILI VA UNING PROFILAKTİKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Rustamova Sevinch Zafarjon qizi
IIV Akademiyasi, 102- guruh kursanti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari, uning kelib chiqish sabablari va imkon beruvchi shart-sharoitlari kriminologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda oila-turmush doirasidagi nosog'lom muhit, zo'ravonlik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ayollar xulq-atvoriga ta'siri statistika ma'lumotlari (himoya orderlari va sodir etilgan jinoyatlar kesimida) asosida yoritilgan. Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini, xususan, profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar faoliyatini «mahallabay» va «fuqarobay» tizimi asosida takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni («e-ijtimoiy profilaktika») joriy etish hamda ayollar bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar jinoyatchiligi, kriminologik tahlil, oila-turmush munosabatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi, himoya orderi, zo'ravonlik, mahallabay, ijtimoiy profilaktika, ayollar bandligi.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЕЁ ПРОФИЛАКТИКИ

Аннотатсия: В статье проведен криминологический анализ особенностей женской преступности в Республике Узбекистан, причин её возникновения и способствующих ей условий. На основе статистических данных (в разрезе охранных ордеров и совершенных преступлений) освещено влияние нездоровой семейно-бытовой атмосферы, насилия и социально-экономических факторов на поведение женщин. Также выдвинуты практические рекомендации по совершенствованию системы профилактики правонарушений, в частности, деятельности инспекторов по профилактике и инспекторов по вопросам женщин на основе систем «махаллабай» и «фукаробай», внедрению цифровых технологий («e-ijtimoiy profilaktika») и обеспечению занятости женщин.

Ключевые слова: Женская преступность, криминологический анализ, семейно-бытовые отношения, профилактика правонарушений, охранный ордер, насилие, махаллабай, социальная профилактика, занятость женщин.

CRIMINOLOGICAL ANALYSIS OF FEMALE CRIMINALITY AND WAYS TO IMPROVE ITS PREVENTION

Abstract: The article provides a criminological analysis of the specific features of female criminality in the Republic of Uzbekistan, its root causes, and contributing conditions. Based on statistical data (in the context of protection orders and committed

crimes), the impact of an unhealthy family and domestic environment, violence, and socio-economic factors on women's behavior is highlighted. Furthermore, practical recommendations are put forward to improve the crime prevention system, particularly the activities of prevention officers and female affairs inspectors based on the "mahallabay" and "fuqarobay" systems, the introduction of digital technologies ("e-ijtimoiy profilaktika"), and ensuring women's employment.

Keywords: *Female criminality, criminological analysis, family and domestic relations, crime prevention, protection order, violence, mahallabay, social prevention, women's employment.*

Jamiyat rivojlanishi va barqarorligining eng muhim shartlaridan biri — inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda hududlar kesimida jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, har qanday huquqbuzarlikning ildizi, shaxsda g'ayriijtimoiy xulq-atvor va salbiy xususiyatlarning shakllanishi bevosita oiladagi muhit va ijtimoiy voqelik bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, jamiyatning ijtimoiy-demografik tarkibida xotin-qizlarning o'rni va mavqei beqiyos. Biroq, so'nggi yillarda xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoiy qilmishlarning kriminologik xususiyatlari o'zgarib, ular ilgari ayollarga xos bo'lmagan yangicha ko'rinish va transformatsiyalarni kasb etayotganligi soha olimlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga jiddiy vazifalarni qo'yimoqda. Ayollar jinoyatchiligi shunchaki alohida olingan shaxsning xulq-atvori emas, balki oiladagi nosog'lom muhit, zo'ravonlik, moddiy qiyinchiliklar va ma'naviy inqirozlarning mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev xotin-qizlar orasidagi bunday salbiy holatlar jamiyatning eng og'riqli nuqtasi ekanligiga e'tibor qaratib, shunday degan edi: "Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda". Davlatimiz rahbarining ushbu kuyunchaklik bilan aytgan fikrlari oilaviy-maishiy doiradagi nizolar, tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish naqadar dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan bu yondashuv xotin-qizlar jinoyatchiligini barvaqt jilovlash uchun avvalo oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish tizimini tubdan isloh etish kerakligini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada xotin-qizlar jinoyatchiligining kriminologik holati, dinamikasi va tuzilishi tahlil qilinib, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning jinoyatga aylanib ketishiga to'sqinlik qiluvchi omillar hamda profilaktika tizimini kuchaytirish, xususan, "mahallabay" ishlash mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar bayon etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda hududlar kesimida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini o'rganish, ularga zamin yaratuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ijtimoiy va kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishi, qonunga nisbatan hurmatsizlik va turli huquqbuzarliklar sodir etilishiga undagi oilaviy muhit bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Afsuski, hozirgi davrda inson hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlarning 40 foizi, qotilliklarning har to'rttadan bittasi, qasddan badanga shikast etkazish holatlarining har beshtadan biri hamda tuhmat va haqorat qilish qilmishlarining sakkizdan bir qismi aynan oila-turmush munosabatlari doirasida sodir bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari oilalardagi nosog'lom muhit, oila a'zolari o'rtasidagi nizolar va xotin-qizlar orasidagi o'z joniga qasd qilish holatlari jamiyat uchun jiddiy iztirob va dolzarb muammo ekanligini alohida ta'kidlagan edi.

Jamiyat taraqqiy etgani sayin ayollarning ijtimoiy maqomi va ularning mehnat bozoridagi bandlik darajasi o'zgarib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, xotin-qizlar jinoyatchiligining xarakteri va tuzilmasiga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Shu sababli, ayollar tomonidan sodir etiladigan qonunbuzarliklarni muayyan tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar konsepsiyasi asosida tadqiq etish lozim. Kriminologik kuzatuvlar ayollar jinoyatchiligi dinamik xususiyatga ega ekanligini va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga mos ravishda yangicha ko'rinishlar kasb etayotganini ko'rsatadi. Demak, mazkur muammoga qarshi kurashishda xotin-qizlarning ijtimoiy kelib chiqishi, ularni qurshab turgan muhit va jinoyatga undagan sabablarni kompleks inobatga olish zarur.

Davlat rahbarining huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirishga oid qarorlari va Respublika komissiyasi belgilagan tartiblar asosida, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tomonidan jinoyatlar va ijtimoiy-maishiy muammolarni muhokama qilishning yangi tizimi joriy etildi. Mazkur tizim xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishda birinchi bo'g'in vazifasini bajarib, xodimlarning kasbiy malakasi ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2025 yil yakunlariga ko'ra, Respublika miqyosida sodir etilgan jami jinoyatlar tarkibida ayollar tomonidan amalga oshirilgan qilmishlar ulushi nisbatan past darajada saqlanib qolgan bo'lib, taxminan 13,5% ni tashkil etdi.

Jinoyat sodir etgan xotin-qizlarning asosiy qismini (yarmidan ko'pini) 30 va undan katta yoshdagi ayollar tashkil etadi.

Jabrlangan ayollarni ijtimoiy-huquqiy muhofaza qilish maqsadida 2025 yilda 3605 nafar xotin-qizga himoya orderlari rasmiylashtirildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zo'ravonlik holatlarining kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'lgan:

- Oilaviy nizolar va kelishmovchiliklar – 2345 holat;
- Oilaga uchinchi shaxslarning aralashuvi – 458 holat;
- Moddiy va iqtisodiy tanqislik – 269 holat;
- Rashk tufayli kelib chiqqan to'qnashuvlar – 157holat;
- Boshqa holatlar – 376 ta holat.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra, 2025 yilning dastlabki olti oyida respublika bo'yicha tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan 41 051 nafar (7 oylik yakun bo'yicha esa salkam 57 ming nafar) xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirib berilgan bo'lib, ushbu order cheklovlari va talablarini buzganlik uchun yuqoridagi miqdorda (9 mingdan ortiq) shaxsga nisbatan MJtKning 206¹-moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan 3 baravarigacha jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi choralari qo'llanilgan.

Zamonaviy gender munosabatlari va yuridik sotsiologiya yo'nalishidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligidan o'zining determinatsiyalanishi (kelib chiqish sabablari), motivatsiyasi hamda sodir etilish mexanizmi bilan tubdan farq qiladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizatsiya qilish va ayollarning ijtimoiy maqomini yuksaltirish jarayoni qonuniy ravishda deviant xulq-atvor xarakterining ham transformatsiyalanishiga olib kelmoqda. Olimlarning ta'kidlashicha, xotin-qizlar jinoyatchiligi dinamik va moslashuvchan tizim bo'lib, u davlatning iqtisodiy barqarorligi, oila institutining mustahkamligi va jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitning bevosita mahsulidir.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan qonunbuzarliklarning eng birlamchi omili ijtimoiy mikromuhit, ya'ni oiladagi vaziyat bilan bog'liq. Oila — shaxsni ijtimoiylashtirish, unda qonunga hurmat va axloqiy normalarni shakllantirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Biroq, undagi tizimli inqirozlar, uzoq muddatli maishiy zo'ravonlik va destruktiv munosabatlar aks ta'sir ko'rsatadi. Kriminologik viktimologiya nazariyasiga ko'ra, ko'plab ayollar jinoyat sodir etishdan avval o'zlari uzoq vaqt davomida oilaviy tazyiq va zo'ravonlik qurboni (viktimi) bo'lib keladilar. Bu esa ularda psixologik deformatsiyani keltirib chiqaradi va natijada alamzadalik yoki affekt holatida jinoiy qilmishlarga qo'l urish ehtimolini keskin oshiradi.

2. Oila-turmush doirasidagi nizolar va ularning kriminologik oqibatlari.

Ichki ishlar organlari va jamoat xavfsizligi tuzilmalari tomonidan olib borilayotgan tizimli tahlillar oilaviy-maishiy muhitdagi huquqbuzarliklar o'z vaqtida jilovlanmasa, vaqt o'tishi bilan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga aylanib ketish xavfi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Statistik ma'lumotlar va kriminologik pretsedentlar shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan tajovuzlarning sezilarli qismi aynan yaqin qarindoshlik munosabatlari doirasida sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda zo'ravonlik holatlarining kelib chiqishi va nizolarning chuqurlashishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

Ijtimoiy-iqtisodiy omil: Oiladagi moddiy tanqislik, bandlik darajasining pastligi va moliyaviy majburiyatlar (qarzдорlik, kreditlar) yuzasidan kelib chiqadigan doimiy kelishmovchiliklar;

Interpersonal (shaxslararo) ziddiyatlar: Oilaviy munosabatlarga uchinchi shaxslarning (qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar) asossiz va destruktiv aralashuvi natijasida muhitning zaharlanishi;

Psixologik deviatsiya: Rashk, surunkali ruhiy stress, ichkilikbozlik yoki boshqa zararli odatlar ta'sirida o'zaro murosa madaniyatining yo'qolishi.

Ayollar jinoyatchiligining tarkibiy tuzilmasi o'rganilganda, an'anaviy ravishda firibgarlik, mulkiy va iqtisodiy qilmishlar salmoqli o'rin egallasa-da, hozirda tajovuzkorlik elementlari mavjud bo'lgan jinoyatlar (qasddan badanga turli darajadagi shikast etkazish, hattoki qasddan odam o'ldirish) ham uchramoqda. Bunday og'ir jinoyatlarning aksariyatida qurol yoki vosita sifatida maishiy ro'zg'or buyumlaridan foydalanilishi va qilmishning to'satdan kelib chiqqan kuchli ruhiy hayajon (affekt) holatida sodir etilishi ularning barvaqt profilaktika qilinishini qiyinlashtiruvchi omillardan hisoblanadi.

3. Ijtimoiy profilaktika va xotin-qizlar huquqlarini muhofaza qilishning zamonaviy mexanizmlari.

Mahallalarda sog'lom muhitni yaratish hamda xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida bugungi kunda an'anaviy ma'muriy nazorat usullaridan ko'ra, ko'proq "ijtimoiy profilaktika" va "viktimologik himoya" modellariga urg'u berilmoqda. Bu yo'nalishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi.

Profilaktika tizimining samaradorligini oshirish quyidagi zamonaviy mexanizmlarni to'liq ishga solish bilan belgilanadi:

Har bir mahalladagi xotin-qizlar faollari, mahalla raislari va profilaktika inspektorlari hamkorligida nizoli, ajrim yoqasidagi yoki murakkab ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalarning elektron xaritasini (bazasini) yuritish. Bu muammoni u jinoyatga aylangunga qadar aniqlash va manzilli yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Zamon talablariga mos ravishda tashkil etilgan maxsus "Ishonch telefonlari" va raqamlashtirilgan platformalar zo'ravonlikka uchragan yoki undan jabrlanish xavfi ostida bo'lgan ayollarga real vaqt rejimida (24/7) huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Himoya orderi institutini mustahkamlash: Zo'ravonlik qurbonlariga himoya orderlarini rasmiylashtirish amaliyotini kengaytirish bilan birga, order cheklovlarini buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarining muqarrarligini ta'minlash.

Xotin-qizlar jinoyatchiligining iqtisodiy ildizlarini qirqish maqsadida, uyushmagan va ishsiz ayollarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash tizimi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xotin-qizlar jinoyatchiligining kriminologik xususiyatlari va oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillarini tahlil qilish asosida, ushbu salbiy holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktika tizimi samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tizimli takliflar ilgari suriladi: «Mahallabay» va «Fuqarobay» tizimi asosida raqamli nazoratni kuchaytirish: Har bir mahalla kesimida oila-turmush doirasida kelishmovchiligi mavjud bo'lgan, ajrim yoqasiga kelib qolgan yoki muqaddam tazyiq o'tkazgan shaxslarning yagona elektron ro'yxatini (bazasini) shakllantirish lozim.

Ushbu bazani «e-ijtimoiy profilaktika» platformasi bilan integratsiya qilgan holda, nizoli oilalardagi muhitni mahalla faollari va xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar tomonidan kunlik monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarga tezkor munosabat bildirish mexanizmini qonuniy mustahkamlash: Oilaviy janjallar va o'zaro nizolar (MJtKning 40, 41, 59², 183-moddalari) bo'yicha ichki ishlar organlariga xabar kelib tushgan vaqtdan boshlab, uch kunlik muddat ichida mahalla faollari va mas'ul idoralar ishtirokida muhokama tashkil etish amaliyotini majburiy etib belgilash maqsadga muvofiqdir.

Bu nizoning chuqurlashib, og'ir jinoyatga aylanib ketishining oldini oladi. Himoya orderi cheklovlari ustidan nazoratni avtomatlashtirish: Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga himoya orderi rasmiylashtirish amaliyotini kengaytirish bilan birga, order talablarini buzgan zo'ravonlarga nisbatan qonun ustuvorligi va jazoning muqarrarligini ta'minlash shart.

Himoya orderi cheklovlariga rioya etmagan shaxslarni (MJtKning 206¹-moddasi va JKning tegishli moddalari asosida) avtomatlashtirilgan elektron nazorat tizimi (masalan, elektron bilazuklar yoki geo-lokatsion dasturlar) orqali kuzatish tartibini tajriba tariqasida joriy etish taklif etiladi. Profilaktika inspektorlarining ish samaradorligini oshirish: O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi doirasida mahalla profilaktika inspektorlarining xizmat vazifalari maqbullashtirilganligini inobatga olib, ularni o'z faoliyatiga aloqador bo'lmagan tadbirlarga jalb etishni qat'iyani taqiqlash va bor e'tiborni mahalladagi "qizil" toifadagi nizoli xonadonlar bilan manzilli ishlashga yo'naltirish lozim. Viktimologik profilaktika va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi: Xotin-qizlar jinoyatchiligi va ularga nisbatan zo'ravonlik holatlarining iqtisodiy ildizlarini (moddiy etishmovchilik omilini) kamaytirish uchun uyushmagan va ishsiz ayollarni, ayniqsa, ilgari sudlangan yoki probatsiya hisobida turgan xotin-qizlarni «mahallabay» ro'yxatlar asosida kasb-hunarga yo'naltirish va bandligini ta'minlash mexanizmini to'liq ishga tushirish zarur. "Ishonch markazlari" faoliyatini keng targ'ib qilish: Oilaviy zo'ravonlik holatlari haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi "1259" va xodimlarga protsessual-huquqiy yordam ko'rsatuvchi "1286" qisqa raqamli uzluksiz aloqa tarmoqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni mahallalar, ta'lim muassasalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng ko'lamda targ'ib qilish lozim. XULOSA Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, xotin-qizlar jinoyatchiligi va oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar shunchaki huquqiy muammo bo'lmay, balki negizida chuqur ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik sabablar yotgan murakkab fenomendir. O'tkazilgan kriminologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar, jumladan, firibgarlik, o'g'rilik, badanga shikast etkazish va hatto eng og'ir qilmish hisoblangan qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining ildizi aksariyat hollarda oiladagi uzoq yillik nosog'lom muhit, o'zaro murosasizlik va maishiy zo'ravonlik oqibatida yuzaga kelmoqda. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ayollarning ijtimoiy maqomi va bandlik darajasi o'zgarishi ularning xulq-atvoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, xotin-qizlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish faqatgina jazo choralari qo'llashdan iborat bo'lib qolmasdan, balki barvaqt profilaktika, ya'ni jinoyatga imkon bergan shart-

sharoitlarni ildizi bilan bartaraf etishga qaratilishi shart. Mahallalarda «Xavfsiz xonadon» va «Xavfsiz hovli» tamoyillari asosida tashkil etilayotgan yangicha tizim, davlat organlari va keng jamoatchilikning hamkorligi bu borada ijobiy kriminologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: «Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" tamoyili asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi».

Ushbu oliy maqsadga erishish uchun mahallaning ichki imkoniyatlarini safarbar etish, xotin-qizlar va voyaga etmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar xizmatini to'liq yo'lga qo'yish hamda har bir xotin-qizning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kafolatlovchi xavfsiz muhitni yaratish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2026.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Kriminologiya darsligi / Prof. M.H. Rustambaev tahriri ostida. – Toshkent: TDYUU, 2021.
3. Таштемиров, А. А. "Ўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги." Innovative achievements in science 2025 (2024): 82-90.
4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.
5. Таштемиров, А. "Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш давлари." Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования 2 (2023): 133-139.
6. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза-ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.21 (2023): 12-19.
7. Таштемиров, А. А. "Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари." World of Science 6.6 (2023): 169-175.
8. Таштемиров, А., and Ж. Курчибоев. "Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 3.12 (2023): 130-135.
9. Таштемиров А. А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фош этишда тезкор ходимларнинг терговчи ва суриштирувчилар

билан ҳамкорлигининг айрим жиҳатлари //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 156-164.

10. Таштемиров, А. А. "Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы." International scientific research conference. Vol. 3. No. 28. 2024.

11. Tashtemirov, A., and A. Po'latov. "Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari." Инновационные исследования в науке 3.1 (2024): 75-78.

12. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

13. Таштемиров, А. А., and С. А. Калауов. "Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати." barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 2.8 (2022): 245-250.

14. Tashtemirov A. Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

15. Tashtemirov, A. "Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash." (2024): 59-61.

16. Таштемиров, А., and А. Хўжамбердиев. "Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 4-12.

17. Aliqulovich T. A. Atxam o'g'li MX Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 230-235.

18. Tashtemirov A. Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo 'yicha sudlar bilan hamkorligining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 38-42.

19. Таштемиров А. А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 42-48.

20. Tashtemirov A. Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 62-67.

21. Tashtemirov A. Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 50-53.